

ESHQOBIL SHUKURNING TASHBEH QO'LLASH MAHORATI

Sadoqat Ergashova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14231638>

Annotatsiya. Mazkur tezisda iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan tashbehtar badiiyati hamda ijodkorning tashbeh qo'llash mahorati haqida so'z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tashbeh, ijodkor mahorati, ma'naviy san'atlar, obraz, o'xshatish.

Ma'naviy san'atlar- nutqning ma'nosi-mohiyati bilan aloqador bo'lgan poetik san'atdir.

“So'zning ma'nosi bilan bog'liq she'riy san'atlar jamini ma'naviy san'atlar deb yuritiladi.

Uning iymom, ittifoq, tadbix, faxriya, taqsir, irsoli masal, tashxis, intoq, tazod, husni ta'lil, iltifot, talmix, ruju', tazmin, muqobala, ta'riz, tanosib, tajnis, laf va nashr kabi o'nlab ko'rinishlari mavjud”¹.

Ma'naviy san'at, ayniqsa, she'riyatda yuksak badiiylikning muhim omillaridan hisoblanadi. Lekin ularning qo'llanish darajasi har bir ijodkorning individual uslubi va mahorati bilan belgilanadi².

She'riyatda eng ko'p uchraydigan ma'naviy san'atlarning biri bu, shubhasiz, tashbehdir.

Tashbeh. Bilamizki, tashbeh arabcha so'zdan olingan bo'lib, biror narsani ikkinchi bir narsaga o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Tashbehdan ko'zlanadigan asosiy maqsad ijodkor ruhiy olamini va g'oyaviy maqsadini o'quvchi ongiga aniq va konkret yetkazishdan iboratdir.

Tashbehning individual hodisa ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uning orginalligi ijodkor mahorati va ruhiy kechinma jarayoniga bog'liq deb ayta olamiz.

Iste'dodli shoir Eshqobil Shukur she'riyatida ham orginal tashbehning ko'plab na'munalarini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, “Sholi qo'riqchisi” she'rida chayla tuyaning o'rkachiga qiyoslanadi, bu, albatta, o'ziga xos topilma:

...Tuyaning o'rkachiday,

Chetda chayla so'ppaygan.

¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi.—T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 168-bet

² Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. Зарқалам нашриёти, 2006. 14 б.

Tungi keng dalada faqat “suvning ohangin terib kuylayotgan” baqalar ovozi eshitaladi, bir chetta esa chayla...

Chayla va o‘rkach o‘rtasida qanday bog‘liqlik hamda o‘xshashlik bor degan savol tug‘ulishi tabiiy. Bilamizki tuya tabiyatan “og‘ir” jonivor. Chayla ham doim bir joyda, demak ichki muqimlik va shakliy o‘xshashlik asosida yuzga kelgan deb ayta olamiz.

Aynan shu kabi tashbehni “Xayrli tun” she’rida ham uchratishimiz mumkin:

*“Tuyaqush**day** qotgan g‘aramlar”.*

Shoirning “Boymoqlida bahor” she’rida qizg‘aldoq nafisligiga bo‘lgan kechinma mohiyatini ochib berishda uni kelinga qiyoslaydi:

Yashillangan tomlar ustida

*Kelinlar**day** titrar qizg‘aldoq...*

Bunda qizg‘aldoqning makoni “yashillangan” ya’ni yangi hayotning boshlanishiga ishora, yosh kelinlar yangi hayot ostonasida turganida hayajondan qaltirab turadi. Aynan shu holat tashbehni hosil qilgan.

Ijodkor lirik kechinmasi she’rdan she’rga ko‘chishi mumkin. Ya’ni bir lirik kechinma ta’sirida bir nechta she’r yaratilishi ham mumkin, demak, tashbeh ham. Shoirarning ba’zi she’rlari bir-biriga o‘xshashi ham shundan.

Eshqobil Shukur “Chimildiq” she’rida chimildiqni kemaga qiyoslaydi: “Kema**day** qalqiydi chimildiq...”. “Mehrinisoga aytgan allamiz” she’rida esa “Kema**day** chayqalar belanchak” tashbehi qo‘llanadi. Birinchi misolda kema katta yo‘lga bir qalqib otlanganiday, chimildiq vositasida yangi oila kata yo‘lga qadam qo‘ygani nazarda tutilgan bo‘lsa, ikkinchi misolda yosh go‘dakni bag‘riga olgan belanchak hali “katta yo‘l” dan bexabar holda “chayqalib” turibdi.

“Umumiy vagon” she’rining 7-bandida yana bir takrorlanmas tashbehning guvohi bo‘lamiz:

*Yelkamga tosh **kabi** botgan tushlaring...*

Anglashiladiki, lirik qahramon poyezd vagonida yelkasiga bosh qo'yib uxlayotgan ayolning tushlarini toshga qiyoslaydi. Ayolning tushlari shunchalar og'irki, toshday "botadi". Sababi "uyqung to'la tashvish tutunlariga" misrasi orqali oydinlashadi.

8 misradan tashkil topgan "Mohiyat" she'rida shoir o'zini tandirdan uziladigan nonga qiyoslaydi. Bu o'ziga xos topilma.

Nonday uzilarman, balki, tandirdan...

Men ham boshqa insonlar kabi Tangri tomonidan yozilgan bitikman, bir kuni kelib tandirdan uzilgan nonday uzilishi uqtirilmoqda. Ya'ni umrning "pishib" nihoyaga yetishi bilan tandirdan uzilgan non o'rtasida o'xshashlik badiiy bo'yoqlarda tasvirlanadi.

"Suv" she'ri ham nihoyatda tashbehlarga boy:

*Daryolar quridi, qo'llar qatqaloq,
Sahroday qaqraydi, ko'zlarimiz ham..*

Bilamizki, sahro suvsizlikdan iborat makon, unda hamma jonzot ham yashay olmaydi, daryo qurishini jimgina tomosha qilgan ko'zlarimiz ham cho'l kabi qaqraydi. Yig'lashdan to'xtaydi. Chunki ichi bo'm-bo'sh hissiz odam yig'lay olmaydi sahroga aylanadi demoqchi shoir.